

MAXSUS SPORT MAKTABLARIDA CHET TILINI O'QITISHNING SAMARALI METODLARI VA SPORT TERMINOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING O'RNI (ISPAN TILI MISOLIDA)

Salaxova Dilnoza Sagdullayevna

O'zDJTU, Ispan tili nazariy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15645529>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maxsus sport maktablarida ispan tilini o'qitishning samarali metodlari va sport terminologiyasidan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada ESP va CLIL metodikasiga asoslangan yondashuvlar, o'quvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli hamda amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *ispan tili, sport terminlari, ESP, CLIL, maxsus maktablar, metodika.*

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ СПОРТИВНЫХ ШКОЛАХ И РОЛЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПОРТИВНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ (НА ПРИМЕРЕ ИСПАНСКОГО ЯЗЫКА)

Салахова Дилноза Сагдуллаевна

**Преподаватель кафедры теоретических
дисциплин испанского языка, УзГУМЯ**

Аннотация: В статье рассматриваются эффективные методы преподавания испанского языка в специализированных спортивных школах и использование спортивной терминологии. Проанализированы подходы, основанные на методиках ESP и CLIL, а также представлены практические рекомендации по развитию языковых компетенций учащихся.

Ключевые слова: *испанский язык, спортивная лексика, ESP, CLIL, специализированные школы, методика.*

EFFECTIVE METHODS OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN SPECIALIZED SPORTS SCHOOLS AND THE ROLE OF USING SPORTS TERMINOLOGY (THE CASE OF SPANISH LANGUAGE)

Salaxova Dilnoza Sagdullayevna

**Lecturer at the Department of
Spanish Language Theory, UzSWLU**

Abstract: This article explores effective methods for teaching Spanish in specialized sports schools and the integration of sports terminology into the language learning process. It analyzes approaches based on ESP and CLIL methodologies and offers practical recommendations for enhancing students' language competencies.

Keywords: *Spanish language, sports terminology, ESP, CLIL, specialized schools, methodology.*

Bugungi kunda chet tillarini o'qitishning samaradorligini oshirish, ayniqsa ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Maxsus sport maktablarida xorijiy til, xususan, ispan tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muassasalarda ta'lim olayotgan o'quvchilar asosan sport bilan faol shug'ullanadilar, shuning uchun ular uchun moslashtirilgan, sohaga oid leksikani o'z ichiga olgan dars metodlari talab etiladi.

Chet tilini sohaga integratsiya qilish, ya'ni sport mavzulari asosida o'qitish orqali nafaqat lug'at boyligi kengayadi, balki o'quvchilarning motivatsiyasi, kommunikativ ko'nikmalari va real hayotda tilni qo'llash malakalari ham rivojlanadi. Ayniqsa, ispan tilining xalqaro sport olamidagi o'rni ortib borayotganini inobatga olsak, bu yo'nalishda ta'lim mazmunini yangilash va zamonaviy metodikalarni joriy etish ayni vaqt talabi hisoblanadi.

Mazkur maqolada sport maktablarida ispan tilini o'qitish jarayonidagi metodik yondashuvlar, sport terminlaridan foydalanishning o'rni haqida so'z boradi.

Chet tilini maxsus yo'nalishlarda o'qitish bo'yicha so'nggi yillarda ESP (English/Spanish for Specific Purposes – muayyan maqsadlar uchun til) va CLIL (Content and Language Integrated Learning – mazmun va til integratsiyasi) kabi metodik yondashuvlar dolzarblik kasb etmoqda. Bu yondashuvlar sport maktablarida ispan tilini o'qitishda ham qo'llanilishi mumkin, chunki ular tildan aniq kontekstda foydalanishga asoslanadi.

ESP metodikasi haqida J.C.Richards shunday deydi: “ESP o'rganuvchining aniq ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lib, u o'rganilayotgan tilni muayyan fan, kasb yoki faoliyat sohasiga bog'laydi” [2].

Bu yondashuv sport maktabi o'quvchilariga aynan sport bilan bog'liq terminologiyani va kommunikativ vaziyatlarni o'rganishga imkon beradi.

Shuningdek, CLIL metodikasi ham sport tilini samarali o'rgatishda foydalidir. D. Coyle, P. Hood va D. Marsh ha ko'ra “CLIL bu ikki yo'nalishga qaratilgan ta'limiy yondashuv bo'lib, uning doirasida qo'shimcha chet tili orqali mazmun hamda til birgalikda o'rgatiladi” [1].

Bu metod yordamida o'quvchilar sport darslarida yoki sportga oid materiallar asosida tilni o'rganadilar, bu esa real kontekstda o'rganishni ta'minlaydi.

O'zbekiston tajribasida ham maxsus maktablarda chet tilini sohaga bog'lab o'qitish urinishlari mavjud. Misol uchun, Respublika ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatlarida ingliz tilini sport mavzulari asosida o'qitish tajribalari kuzatilgan. “El Golazo” sport akademiyasi qoshida ochilgan “Tomiris School” zamonavoiiy maktabida esa ham ingliz ham ispan tili o'quvchilarga o'rgatib boriladi.

Shu nuqtai nazardan, ispan tilini sport maktablarida ESP va CLIL yondashuvlari asosida o'qitish – ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va ularni xalqaro maydonga tayyorlashda muhim qadamlardan biridir.

Sport maktablarida xorijiy tilni, xususan ispan tilini o'qitish umumta'lim maktablariga qaraganda o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Bu muassasalardagi o'quvchilar sport faoliyatiga yo'naltirilgan bo'lib, ularning darsdan tashqari mashg'ulotlari ko'p bo'ladi, bu esa dars vaqtidan samarali foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu sababli, darslarda mavzularni sport kontekstida tashkil etish nafaqat o'quvchining qiziqishini oshiradi, balki ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Til va sport integratsiyasiga asoslangan darslarda Tematik yondashuv (Topic-based learning) metodi samarali metodlardan biri hisoblanadi. Dars mavzusi sport bilan bog'liq bo'ladi, masalan: El fútbol en España, Las reglas del baloncesto, La dieta del deportista. Bu yondashuv orqali o'quvchilar sportga oid leksikani real kontekstdan o'rganadilar.

Rollar o'ynash (Role-play) metodida o'quvchilar “murabbiy”, “sportchi”, “shifokor” rollarini ijro etib, amaliy nutq ko'nikmalarini mustahkamlaydilar. Masalan, “sportchilar matbuot anjumanida” yoki “murabbiy bilan intervyu” ssenariylari bo'yicha sinfni guruhlarga bo'lib rollarni taqsimlash orqali har bir o'quvchini dars jarayoniga aktiv qatnashtirish mumkin.

Video va audiomateriallardan foydalanish ispan tilida olib borilgan sport musobaqalari, sharhlar, sportchilar bilan intervyular kabi til tashuvchilar nutqini tinglash o'quvchilar uchun eshitish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda foydali bo'ladi. Leksik mashqlarni bajarish sport terminlariga asoslangan so'z topish, tarjima qilish, antonim va sinonimlarni aniqlash, jumlar tuzish mashqlari esa o'quvchining so'z boyligidan unumli foydalanish va samarali oshirishda yetakchi usullardan biridir.

CLIL asosidagi, masalan, "futbol qoidalari" mavzusida grammatika va so'z boyligini birgalikda o'rganish, yoki "sportchilar ovqatlanishi" mavzusida matn bilan ishlash kabi mashg'ulotlar bir necha kompetensiyalarni baravar rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Ushbu metodlar orqali o'quvchilar tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki muloqot vositasi sifatida ko'radilar. Sport terminologiyasi esa ularning tilga bo'lgan ishonchini oshiradi va kommunikativ vaziyatlarda erkin ifoda qilishga yordam beradi.

Darslarda quyidagi sport terminlari keng qo'llaniladi (misollar ispan tilida): *entrenamiento* (mashg'ulot), *competencia* (musobaqa), *árbitro* (hakam), *gol* (gol), *cancha/campo* (maydon), *equipo* (jamo), *lesión* (jarohat) [4].

O'quvchilar ushbu so'zlar asosida sport haqida suhbatlashish, fikr bildirish va sport voqealarini sharhlashga o'rganadilar. Bu esa ularning umumiy til malakasini sezilarli darajada oshiradi.

Ispan tilini sport maktablarida samarali o'qitish uchun o'qituvchilar dars jarayoniga sport bilan bog'liq terminologiyani, mavzularni va kommunikativ vaziyatlarni kiritishlari lozim. Bu nafaqat o'quvchilarning lug'at boyligini oshiradi, balki ularni tilni real hayotda qo'llashga tayyorlaydi.

Maxsus sport maktablarida chet tilini o'qitish bo'yicha bir necha tavsiyalar berish mumkin. Masalan, darslik va qo'llanmalarda sport mavzulari bo'yicha bo'limlar yaratish yoki har bir bo'limda sportga oid mashqlar berish doimiy shu mavzudagi so'zlar bilan kontaktda bo'lish va ularni yanada yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi. Darslarni ESP va CLIL metodikasiga tayangan holda loyihalash, sport mavzusida multimedia vositalaridan (video, podkast, intervyu) foydalanish, sportchilarning tarjimai hollari, mashg'ulot turlari, o'yin qoidalari, musobaqa sharhlari asosida mashqlar ishlab chiqish, o'quvchilarni sport tilidagi matnlarni o'qish, eshitish va so'zlashga faol jalb etish ham muhim ahamiyatga egadir.

Shunday qilib, sport maktablarida ispan tilini o'rgatishda soha bilan bog'liq yondashuvni qo'llash til o'rgatish sifatini oshiradi, o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi va ularni xalqaro sport maydonlarida samarali muloqot qilishga tayyorlaydi.

References:

Используемая литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Coyle, Hood & Marsh, 2010. CLIL: Content and Language Integrated Learning, Cambridge University Press.
2. Richards, 2001. Curriculum Development in Language Teaching, Cambridge University Press.
3. Sagdullaevna S. D. Teaching A Foreign Language Through Short Films //European Journal of Research Development and Sustainability. – T. 4. – №. 6. – C. 42-44.

4. Салахова Д. С. АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА СПОРТИВНЫХ ТЕРМИНОВ С ИСПАНСКОГО НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК //Проблемы науки. – 2024. – №. 4 (85). – С. 81-84.
5. Салахова Д. С. ИДЕНТИФИКАЦИЯ КУЛЬТУРНО-СПЕЦИФИЧНЫХ КОНЦЕПТОВ В ИСПАНСКОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА //Журнал гуманитарных и естественных наук. – 2025. – №. 19 [1]. – С. 254-261.
6. Салахова Д. С. НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ СПОРТИВНЫХ ТЕРМИНОВ В ИСПАНСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ //Multidisciplinary and Multidimensional Journal. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 106-108.